

MIRZO ULUG‘BEKNING ILMIY MEROSI

Rahimov Mirzo Ulug‘bek

Toshkent Davlat Tibbiyot Universiteti 1-son Davolash ishi fakulteti 105-“B” guruh talabasi

Annotatsiya: ushbu maqolada buyuk astronom va matematik alloma Mirzo Ulug‘bekning hayoti, ilmiy faoliyati, Samarqand rasadxonasining bunyod etilishi, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy” asarining jahon ilm-faniga qo‘shgan ulkan hissasi, temuriylar davrida shakllangan ilmiy maktabning mazmuni hamda Prezidentimiz tomonidan alloma merosiga berilgan yuksak baholar tahlil qilinadi. Maqola bugungi yoshlar uchun Mirzo Ulug‘bek ilmiy merosining ibratli ahamiyatini ochib beradi.

Kalit so‘zlar Mirzo Ulug‘bek, astronomiya, matematika, rasadxona, yulduz jadvali, “Ziji jadidi Ko‘ragoniy”, ilmiy maktab, Temuriylar, Sharq Uyg‘onishi.

O‘zbekiston tarixida ilm-fan taraqqiyotiga ulkan hissa qo‘shgan allomalar ko‘p bo‘lsa-da, Mirzo Muhammad Tarag‘ay Ulug‘bekning o‘rni alohida. U nafaqat davlat arbobi, balki zamonasining eng yetuk astronomi va matematigi sifatida yuksak darajada tan olingan.

O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti Shavkat Mirziyoyev Mirzo Ulug‘bek merosiga yuqori baho berib, uni “Sharq Uyg‘onishining eng buyuk siymolaridan biri, ilmni davlat boshqaruvi darajasiga ko‘targan daholarimizdan” deb ta’riflaydi.

Mirzo Muhammad ibn Shohruh ibn Temur Ulug‘bek Qo‘rag‘oniy – buyuk astronom va matematik, o‘z davrining atoqli allomasi, davlat arbobi, mashhur hukmdor va sohibqiron Amir Temurning nabirasi. U 1441-1449 yillarda Movarounnahrni boshqarib, ham hukmdor, ham olim sifatida yurtimiz tarixida

o'chmas iz qoldirdi. Ulug'bek davrida Samarqand o'rta asrlar davridagi ilm-fan o'choqlaridan biriga aylangan. Samarqandda XV asrning birinchi yarmida Ulug'bekning atrofida G'iyosiddin Jamshid Koshiy, Qozizoda Rumi, Ali Qushchi kabi taniqli astronom va matematiklarni birlashtirgan butun bir ilmiy maktab vujudga keldi.

Ulug'bekning 1417-1420 yillarda Samarqandda qurdirgan madrasasi Registonda barpo etilgan birinchi me'moriy ansamblga aylanadi. Ushbu madrasaga Ulug'bek islom olamining ko'plab astronom va matematiklarini taklif etadi. Shuningdek, G'ijduvon va Buxoroda ham madrasalar qurdirgan. Ulug'bek tomonidan barpo etilgan madrasalar universitet vazifasini bajargan. Buxorodagi Ulug'bek madrasasi peshtoqida «Ilmgga intilish har bir musulmon uchun farzdir» yozuvi saqlanib qolgan.

Alloma ilmiy-ijodiy merosiga mansub qo'lyozma va boshqa madaniy boyliklarni restavratsiya qilish, ularni ishonchli saqlash uchun zarur sharoit yaratish choralari ko'riladi. Allomaning «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asarini o'zbek, rus va ingliz tillarida, «To'rt ulus tarixi» nomli tarixiy asarining o'zbek tiliga tarjimasini qayta nashr qilish ko'zda tutilgan. Abu Rayhon Beruniy nomidagi Sharqshunoslik institutida Mirzo Ulug'bek davriga oid asarlar qo'lyozmalarining ko'rgazmasi tashkil etiladi.

1445-yili yozilgan «Ziji jadidi Ko'ragoniy» asari allomani dunyoga mashhur qiladi. Kishilik tarixida yaratilgan yulduzlar jadvallarida eng mukammali hisoblangan mazkur «Zij» hozirgacha ham o'z ilmiy ahamiyatini yo'qotmagani bilan qimmatlidir. Dastlabki yulduzlar jadvali Ptolemeyga (vaf. 170) mansub bo'lib, milodning II asrida Iskandariya shahrida tuzilgan. Bu jadvalda 1029 ta

yulduzning koordinatasi berilgan. Undan sakkiz yuz yil keyin Sherozda Abdurahmon So‘fiyning (901-986) “Turgun yulduzlar suratlari” nomli jadvali tuziladi. Bu jadvalda 1017 ta yulduz ko‘rsatilgan. 1437-yili tuzilgan Ulug‘bek jadvalida esa 1018 ta yulduzning aniq koordinatasi berilgan bo‘lib, bu katalog asrlar davomida dengizchilar uchun geografik koordinatalarni aniqlashda eng ishonchli manba bo‘lib kelgan.

Ulug‘bek ilmiy maktabi Sharq Uyg‘onishining eng yuksak bosqichlaridan biri bo‘lib, unda ilmiy kuzatuvlar muntazam olib borilgan, aniq hisob-kitoblarga asoslangan metodlar ishlab chiqildi, yosh olimlarga keng sharoit yaratildi, ilm-fan davlat siyosatining ustuvor yo‘nalishiga aylandi. Ali Qushchi ushbu ilmiy an’anani keyinchalik O‘rta Osiyo, Eron va Turkiya hududlarida davom ettirdi.

Prezident Shavkat Mirziyoyev Mirzo Ulug‘bek merosini yuqori baholab, uning yondashuvlarini bugungi ilm-fan taraqqiyotining asoslaridan biri sifatida e’tirof etadi.

Mirzo Ulug‘bekning ilmiy merosi astronomiya va matematika fanida ulkan ahamiyatga ega. Uning rasadxona qurdirishi, yulduzlar jadvalini yaratishi, ilmiy maktab barpo etishi insoniyat sivilizatsiyasi tarixida o‘chmas iz qoldirgan. Uning rasadxona qurdirishi, yulduzlar jadvalini yaratishi, sferik trigonometriya usullarini takomillashtirishi, ilmiy maktab barpo etishi nafaqat o‘z davri, balki keyingi asrlar uchun ham bebaho xazinadir.

Mirzo Ulug‘bekning boy merosini o‘rganish maqsadida xalqaro miqyosda keng ko‘lamli ilmiy izlanishlar olib borish, shu mavzuda ilmiy, badiiy-publitsistik asarlar yaratish, xorijiy olimlarning asarlarini o‘zbek tilida nashr qilish ishlari tashkil etiladi. Mirzo Ulug‘bek siymosi tasvirlangan, uning shaxsi, davlat arbobi sifatidagi

faoliyati va allomaning ilmiy-ma'rifiy merosiga bag'ishlangan ko'rgazmali axborot vositalarini tayyorlash, media mahsulotlar va audiovizual asarlar yaratish hamda mahalliy va xorijiy ommaviy axborot vositalarida keng yoritish, internet hamda ijtimoiy tarmoqlarga joylashtirish kabi dolzarb vazifalar o'z aksini topgan.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Mirziyoyev Sh.M. Yangi O'zbekiston strategiyasi. – Toshkent: O'zbekiston, 2021.
2. Sodiqov A., Abdullayev H. O'zbekiston tarixi. – Toshkent: Fan, 2019.
3. Qayumov A. Mirzo Ulug'bek va uning ilmiy merosi. – Toshkent: Ma'naviyat, 2001.
4. Ali Qushchi. Risola fi-l-hay'a. — Istanbul nashrlari.
5. Pugachenkova G.A. Samarqand rasadxonasi tarixi. – Moskva, 1985.
6. Encyclopedia Britannica: Ulugh Beg.
7. Alpatov M. Insoniyat tarixidagi buyuk astronomlar. – Moskva, 1996.